

HARBIY SOTSILOGIK HOLAT

*Erejepova Sayora Tileumuratovna**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Tarix fakulteti Sotsiologiya yo'naliishi talabasi*

Annototsiya: Ushbu maqolada harbiy sotsiologiyaning vazifalarini jamiyatda qanday o'ringa egaligini va shu bilan birga harbiy xizmatchilarning vazifalari haqida bilib olasiz.

Kalit so'zlar: Harbiy intizom, metodlar, sotsiologik tahlil.

Sotsiologiya fani rivojlangani sari har xil yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab olmoqda. Shu boistan jamiyattagi har xil masalalar o'z yechimini topmoqda. Masalan keying yillari sotsiologiya fanida huquq sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi, yoshlar sotsiologiyasi va shunga o'xhash sohalarda sotsiologiyaning yangi qirralari vijudga kelmoqda. Shular qatorida harbiy sotsiologiya fanini aytib o'tsak ham bo'ladi. Asosan harbiy sotsiologiya boshqa sohalar singari jamiyat bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Lekin bu bog'liq asosan harbiy yo'nalishda, harbiy shaxslar bilan bo'ladi. Yurtimizning tinchligi, faravon tumish tarizi, asoyishta umr ko'rishimiz asosan harbiy tizimga, harbiy kuchlarimizga bog'liq. Sotsiologiya ham harbiy yo'nalishda o'zining asosiy vazifasini bajaradi va bu boshqalaridan farq qiladi. Masalan harbiy intizom, harbiylar ortasidagi talablar, qa'tiylik va shu singari tushinchalar vijudga keladi. Bu esa harbiy sotsiologiyaning boshqa sotsiologik sohalardan ajiralib turishining isboti bo'ladi desak yanglismaymiz.

Avvalida intizom so'zi o'qitish jarayoni bilan bog'lanar edi. Uni hozir ham ba'zan shu ma'noda ishlatamiz. Masalan, sotsiologiya yoki boshqa akademik fanlarni distiplina deb yuritamiz. Lekin XVII asrda bu so'z harbiy tayyorgarlik va uning natiyjasida ishlab chiqilgan maxsus tartib-intizom qoidalarini ifodalashda qo'llanar edi. ¹Ushbu parcha orqali harbiy sohada boshqa sohalardan o'zining intizomi tartibi bilan ajiralib turishini aytib o'tsak to'g'i bo'ladi. Shunday ekan harbiy sotsiologiya shu bilan birga harbiy ximatchilarning jamiyat bilan o'z aro munosabayini, shaxslar bilan muloqattagi jarayonlarni ham o'z tadqiqodlarida o'rgrib tahlil qilib chiqadi.

Harbiy sotsiologiyaning ob'ektli-predmetli sohasining mazmunini ijtimoiy hamkorlik shakllarini tadqiqot qilinishi tashkil etadi :jamiyat va armiya o'rtasida, ya'ni harbiy tashkilotlarga nisbatan tashqialoqlar va munosabatlar;armiyaning ijtimoiy tuzilishining har xil elementlari (tarkibiy qismlari) o'rtasida, ya'ni harbiy tashkilotda guruhlar ichidagi aloqalar va munosabatlar ;harbiy xizmatchilar o'rtasida, harbiy-ijtimoiy munosabatlar sohibi sifatida, ya'ni shaxslararo ijtimoiy aloqalar va munosabatlar.Zamonaviy sotsiologiyada harbiy sotsiologiya maxsus sotsiologik nazariyasifatida ko'rib chiqiladi va uning o'rganish ob'ekti harbiy tashkilotlar

¹ E.Giddens. Sotsiologiya. "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyodorlik kompaniyasi bosh tahriryati Toshkent-2002

jamoalari va umuman Qurolli Kuchlar hisoblanadi (ularning tuzilmalar tarkibi, harbiy jamoalar, tinchlik va urush davridagi harbiy faoliyat). Harbiy sotsiologiyaning asosiy predmeti – bu Qurolli Kuchlarda yuzaga keladigan harbiy-ijtimoiy munosabatlar va jarayonlardir, xususan butun organizm, shuningdek, jamiyatning ajralmas qismi sifatida. Harbiy xizmatchilarda sotsiologik bilim, tushunchalar va tasavvurlarni shakllantirishda —Sotsiologiya o‘quv fani nafaqat jamiyatda, davlatda, Qurolli Kuchlarda balki bevosita harbiy xizmatchilarning o‘zlarida rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarda nima sodir bo‘layotganligini yaxshi tushunishlariga erishish uchun ma‘lumotdan foydalanish va fikrlashni rivojlantirishga yordam beruvchi aqlning maxsus sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Negaki xalq donishmandlari aytganlar: —Xayotda eng osoni – bu maslahat berish, hammasidan qiyini esa – o‘z-o‘zini tushunib anglab etish.²

Yuqorida atlidlab o‘tganimizdek harbiy sotsiologiya jamiyatta ma’lum bir intizomni shakllantiradi va vijudga keltiradi. Sotsiologiyaning bu sohasi harbiy xizmatchilarning fikrlarin va shunga o‘xshagan hislatlarin o‘rganib tahlil qiladi. Shu bilan birga sotsiologiyadagi har xil metodlarni qo‘llagan holda harviy xizmatchilardan o‘z fikrlarni o‘rganib chiqadi. Masalan harviy xizmatchilar orasida konflikt vijutga kelishi mumkin yo‘ki harbiylar orasida deviant xulq-atvorli xizmatchilar ham bo‘lishi mukin. Shu paytta harbiy sotsiologik holatni o‘rganib chiqib ulardan har xil metodlarni qo‘llab yechim topishimiz mukin. Asosan sotsiologik metodlar ichidan anketa, interviyu, sorovnoma va shu singari metodlarni qollanib ularning fikrlarini bilib olishimiz mumkin. Asosiy masalani bilib olgandan so‘ng shunga mos tartibda yechimni ham topish lozim bo‘ladi. Takidlab aytganimizda harbiy sotsiologik faoliyat jamiyatimiz uchun kerak deb aytal olamiz. Chunki sotsiologiyadagi har bir soha vakillari o‘z zimmasidagi vazifalarini a’lo darajada bajarishga harakat qilish kerak bo‘ladi. Shuning uchun ham sotsiologiyada zamon rivojlanishiga qarab har xil yo‘nalishlar vijudga kelmoqda. Bu esa sotsiologik tahli va sotsiologik yechim, dunyo qarash jamiyatdagi har bir sohada bo‘lishi kerak ekanligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Giddens. Sotsiologiya. "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyodorlik kompaniyasi bosh tahriryati Toshkent-2002
2. Harbiy sotsiologiya darslik D. Qarshiyeva Chirchiq- 2020

² Harbiy sotsiologiya darslik D. Qarshiyeva Chirchiq- 2020